ENDOMETRIOZ BILAN BOG‘LIQ BEPUSHTLIKDA TUXUMDON ZAXIRASI VA ULTRATOVUSH-DOPPLER KO‘RSATKICHLARINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Sattaraliyeva H.B.,
Mo‘minova D.B.
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya

Dolzarbligi. Endometrioz reproduktiv yoshdagi ayollarda bepushtlik bilan bog‘liq bo‘lgan surunkali ginekologik kasalliklardan biridir. Tuxumdon endometriomasi tuxumdon to‘qimasi va follikulyar apparatga ta’sir ko‘rsatishi natijasida tuxumdon zaxirasining kamayishiga olib kelishi mumkin. Tuxumdon zaxirasini baholashda anti-Müller gormoni (AMH) va antral follikulalar soni (AFC) asosiy klinik ko‘rsatkichlar sifatida qo‘llaniladi.

Maqsad. Endometrioz bilan bog‘liq bepushtlikda tuxumdon zaxirasi ko‘rsatkichlari — AMH va AFC — hamda tuxumdon va endometriyning ultratovush-Doppler parametrlarini kompleks o‘rganish, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash.

Materiallar va usullar. Tadqiqotga endometrioz bilan bog‘liq bepushtligi bo‘lgan reproduktiv yoshdagi ayollar jalb qilinishi rejalashtirilgan. Klinik-anamnestik ma’lumotlar, endometrioz bosqichi, endometriomaning o‘lchami va joylashuvi baholanadi. Tuxumdon zaxirasi AMH darajasi va AFC orqali aniqlanadi. Dopplerografiya yordamida RI, PI, PSV va EDV ko‘rsatkichlari baholanadi. Shuningdek, endometriyning qalinligi, tuzilishi va qon oqimi parametrlarining o‘zgarishlari o‘rganiladi. Olingan ma’lumotlar korrelyatsion va ko‘p omilli statistik tahlil yordamida tahlil qilinadi.

Kutilayotgan natijalar. Endometriomaning o‘lchami, joylashuvi va morfologik xususiyatlari bilan AMH va AFC ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash kutilmoqda. Shuningdek, tuxumdon va endometriyning Doppler ko‘rsatkichlari hamda tuxumdon zaxirasi o‘rtasidagi munosabat baholanadi.

Xulosa. AMH va AFC ko‘rsatkichlarini ultratovush va Doppler parametrlar bilan birgalikda baholash endometrioz bilan bog‘liq bepushtlikda tuxumdon zaxirasi va reproduktiv salohiyatni kompleks o‘rganish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: endometrioz, bepushtlik, endometrioma, tuxumdon zaxirasi, AMH, AFC, ultratovush, Dopplerografiya, reproduktiv salohiyat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асранкулова Д.Б., Саттаралиева Х.Б. Зависимость показателей лептина от степени и типа ожирения у пациенток с синдромом поликистозных яичников. *Инновационные подходы в современной науке*. 2023; 9(1).

2. Асранкулова Д.Б., Саттаралиева Х.Б. Особенности липидного обмена у пациентов с синдромом поликистозных яичников. *Modern Scientific Research: Achievements, Innovations and Development Prospects*. 2023; 9(1).

3. Ахмедова Н.М., Саттаралиева Х.Б. Особенности репродуктивного здоровья девочек-подростков. *Re-health Journal*. 2021;(2):33–37.

4. *Human Reproduction*. 38(9):1655–1700.